



# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

## Asosiy tarkib



Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

## Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **2 405,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **6,7 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **282,8** mlrd. so'mni (**8,7 %** ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **2 122,8** mlrd. so'mni (**9,1 %** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1304,0** mlrd. so'mni (**11,8 %** ga oshdi) tashkil etdi.


## Tarkibiy qism, ulushlarda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm





## UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **2 405,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan **6,7 %** ga oshdi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **88,2 %** va yirik korxonalar hissasiga **11,8 %** to'g'ri keldi.



## ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shahri **26,5 %** ulush bilan **637,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Jizzax sh.  
637,5

Zomin  
342,9

G'allaorol  
173,7

Paxtakor  
101,9


Mirzacho'l  
60,1

Arnasoy  
50,7

## ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Yangiobod tumani **1,0 %** ulush bilan **24,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	
		2020- yil Yanvar-aprel
		2021- yil Yanvar-aprel

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, **2 122,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan **9,1** % ga oshdi. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **88,2** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Sharof Rashidov (99,8 %), Arnasoy (98,8 %), Zafarobod (98,2 %), Yangiobod (98,1 %), G'allaorol (97,6 %), Forish (97,6 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatildi .

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, foizda
<b>Jizzax viloyati</b>	2405658,5	106,7	282821,5	91,3	2122837,0	109,1
<b>Jizzax sh.</b>	637485,8	96,5	71833,9	48,5	565651,9	110,4
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	50712,6	108,2	604,6	137,6	50108,0	107,9
Baxmal	367836,9	131,1	181809,5	139,5	186027,4	123,8
G'allaorol	173677,8	105,8	4217,7	151,5	169460,0	105,0
Sharof Rashidov	367500,4	98,7	619,0	139,5	366881,4	98,7
Do'stlik	79226,9	113,7	2638,6	145,4	76588,3	112,9
Zomin	342884,2	107,4	11071,0	103,8	331813,2	107,6
Zarbdor	80901,7	118,3	2201,1	164,4	78700,6	117,4
Zafarobod	37231,0	99,9	651,9	49,6	36579,1	101,8
Mirzacho'l	60098,7	108,6	1769,0	405,6	58329,6	106,2
Paxtakor	101899,5	123,2	2962,2	29,5	98937,3	136,1
Forish	81995,5	109,1	1983,4	128,2	80012,1	108,7
Yangiobod	24207,5	106,6	459,5	141,1	23748,0	106,1

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

## Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 8,7 % ga kamaydi va **282,8** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,8 % ulushiga to'g'ri keladi.



## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 2 122,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 9,1 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,2 % ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sharof Rashidov (99,8 %), Arnasoy (98,9 %), Zafarobod (98,2 %), Yangiobod (98,2 %), G'allaorol (97,7 %), Forish (97,7 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 11,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Jizzax shahri (11,3 %), Paxtakor (2,9 %), Baxmal (49,4 %), Zomin (3,2 %) va Do'stlik (3,3 %) tumanlarida kuzatildi.





## JIZZAX VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


2021- yil yanvar-aprel oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1 701,9 ming so'm (2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 4,1 % ga oshdi), hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Jizzax shahri (3 522,0 ming so'm), Baxmal (2 304,7 ming so'm), Zomin (2 049,5 ming so'm) va Sharof Rashidov (1 619,7 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da
Jizzax viloyati	1701,9	104,1
Jizzax sh.	3522,0	94,4
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	1088,3	106,1
Baxmal	2304,7	127,8
G'allaorol	990,7	103,2
Sharof Rashidov	1619,7	95,8
Do'stlik	1187,8	111,2
Zomin	2049,5	104,8
Zarbdor	915,2	114,9
Zafarobod	735,8	98,0
Mirzacho'l	1140,4	106,3
Paxtakor	1342,5	120,4
Forish	873,2	107,0
Yangiobod	846,4	104,3

**Asosiy tarkib, foizda**




Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-aprel oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **436,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan **31,1** % ga oshdi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **131,8** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **12,7** % ga kamaydi), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **304,6** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **18,2** % ga oshdi) .


**O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



**Savdo aylanmasi hajmi va ulushi**



**Eng yuqori ulushga ega hududlar**





**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021- yilning yanvar-aprel oyida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **131,8** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **304,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT) ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	436,4	131,1	131,8	87,3	304,6	118,2
Jizzax sh.	75,0	140,2	55,0	73,3	0,0	0,0
tumanlar:						
Arnasoy	14,9	123,9	2,9	70,1	11,0	94,8
Baxmal	75,1	179,6	11,4	220,9	83,6	143,5
G'allaorol	44,3	103,7	10,8	53,6	29,5	80,9
Sharof Rashidov	31,3	59,3	0	0	25,3	64,6
Do'stlik	19,6	163,0	7,0	71,9	16,6	206,3
Zomin	73,3	130,8	21,6	76,4	51,7	86,2
Zarbdor	27,4	157,4	3,6	84,7	27,8	118,5
Zafarobod	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Mirzacho'l	11,9	118,6	4,6	93,7	6,3	64,3
Paxtakor	36,1	302,3	5,9	87	34,2	255,3
Forish	19,1	119,7	8,2	98,9	10,8	69,3
Yangiobod	8,5	126,5	0,8	63,5	7,7	99,5

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



3,0  
mlrd. so'm

Tuzlamalar



46,9  
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari



3,5  
mlrd. so'm

Qurtilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari

(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

21,6  
mlrd. so'm



Non va non  
mahsulotlari



5,7  
mlrd. so'm

Sut va sut  
mahsulotlari

9,2  
mlrd. so'm



Tuxum

17,4  
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)

4,9  
mlrd. so'm



Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar

1,0  
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)

2,8  
mlrd. so'm



Ziravorlar

10,2  
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

2021- yilning yanvar-aprel oyida viloyatning Zafarobod va Sharof Rashidov tumanlaridan tashqari barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **131,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**46,9** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.



2021- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning Jizzax shahri va Zafarobod tumanidan tashqari barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **304,6 mlrd. so'mni** tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **214,2 mlrd. so'mni**, qo'y va echkilar **82,8 mlrd. so'mni**, otlar **6,4 mlrd. so'mni**, parrandalar **1,2 mlrd. so'mni** tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O‘SISH SUR‘ATLARI**

2021- yilning yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,8 %** ni tashkil etib, **43,6** mlrd. so‘mga yetdi va 2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan **2,3 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **100,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining  
o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mln. so‘m	2020- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2020- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	43624,7	97,7	43624,7	97,7
Jizzax sh.	21348,0	97,7	21348,0	97,7
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	309,8	102,1	309,8	102,1
Baxmal	817,7	101,9	817,7	101,9
G‘allaorol	2676,1	103,5	2676,1	103,5
Sh. Rashidov	7739,7	103,9	7739,7	103,9
Do‘stlik	1487,2	103,5	1487,2	103,5
Zomin	3004,8	71,6	3004,8	71,6
Zarbdor	1351,9	103,8	1351,9	103,8
Zafarobod	392,8	102,7	392,8	102,7
Mirzacho‘l	1707,5	104,2	1707,5	104,2
Paxtakor	1422,8	103,8	1422,8	103,8
Forish	1099,8	103,5	1099,8	103,5
Yangiobod	266,6	103,0	266,6	103,0

## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar


Kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-aprel oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **626,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan **8,1 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **115,3** mlrd. so'mni (**38,5 %** ga kamaydi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **510,7** mlrd. so'mni (**3,5 %** ga oshdi) tashkil etdi.

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Jizzax shahar (**106,1 %**), Baxmal (**171,2 %**) va G'allaorol (**106,7 %**) tumanlarida kuzatildi.



**Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda**



	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	626051,8	91,9	115345,0	61,5	510706,7	103,5
Jizzax sh.	359289,0	106,1	72225,0	118,3	287064,0	103,4
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	1162,1	13,4	22,3	0,3	1139,8	101,2
Baxmal	54070,1	171,2	42408,6	208,3	11661,6	103,9
G'allaorol	17665,7	106,7	83,6	13,8	17582,1	110,2
Sh. Rashidov	39959,1	79,2	43,2	0,4	39915,9	101,6
Do'stlik	30403,5	60,7	67,4	0,3	30336,1	113,2
Zomin	65997,0	95,9	13,2	0,3	65983,7	102,4
Zarbdor	8377,9	28,4	8,1	0,0	8369,8	101,0
Zafarobod	4499,8	27,2	94,1	0,8	4405,7	99,1
Mirzacho'l	1638,8	10,8	40,2	0,3	1598,5	100,0
Paxtakor	6164,5	34,0	105,6	0,9	6058,9	102,5
Forish	33681,9	100,0	210,3	157,6	33471,6	99,7
Yangiobod	3142,4	97,7	23,4	33,5	3119,0	99,1



## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, **510,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan **3,5** % ga oshdi. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **81,6** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Zomin (**100,0** %), Yangiobod (**99,3** %), G'allaorol (**99,5** %), Forish (**99,4** %), Sharof Rashidov (**99,9** %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Baxmal (**21,6** %), Mirzacho'l (**97,5** %) tumanlariga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi  
Tel.:72-221-51-26